



ISSN 2181-1571



FERGANA STATE
UNIVERSITY

FarDU.
ILMIY XABARLAR

**IJTIMOYIY GUMANITAR
FANLAR**

**Scientific journal
of the
Fergana State
University**



6/2023

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

“FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University” jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya hamda geografiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I.

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)	JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)	G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)	LEEDONG WOOK (Janubiy Koreya)	BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)	A'ZAMOV A. (O'zbekiston)	KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)	KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)	CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)	RAKETIN O. (Rossiya)	TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)
AXTARIYEVA R. (Rossiya)	XOLMATOV B. (O'zbekiston)	TO'RAYEV A. (O'zbekiston)
	AYUBOV M. (O'zbekiston)	

Tahririyat kengashi

IJTIMOY GUMANITAR FANLARI BO'YICHA		ANIQ VA TABIIY FANLAR BO'YICHA	
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.d.prof.	MAMAJONOV M. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.b.f.d.dots.
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.d.prof.	KAXAROVA M (O'zbekiston)	FarDU, f.f.n.dots.
TOJIBOYEVA H. (O'zbekiston)	Ped.ilm.tad.instituti. p.f.d.(Dsc)	ISOMIDDINOV F. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.n.
O'RINOVA N. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.n.dots.	SABIRDINOV A. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.prof.
ABBASOVA N. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.b.f.d(PhD)	RAHIMOV Z. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.
DAVLYATOVA G. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.n.	MIRZAYEVA D. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.b.f.d(PhD)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)	FarDU, i.f.d.prof.	YULDASHEVA D. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.doktori.
XONKELDIYEVA G. (O'zbekiston)	FarDU, i.f.d.prof.	ANIQ VA TABIIY FANLAR BO'YICHA	
HOLMATOV B. (O'zbekiston)	FarDU, i.f.n.	QORABOYEV M. (O'zbekiston)	FarDU, f.m.f.d.prof.
XAKIMOV N. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d. dots.	O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)	FarDU, f.m.f.d.prof.
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.d.	KARIMOV E.T. (O'zbekiston)	FarDU, f.m.f.d.dots.
USMONOV B. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.d (DSc)	OTAJONOV S. (O'zbekiston)	FarDU, f.m.f.d.prof.
MAXMUDOV O. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.d.dots	RASULOV R. (O'zbekiston)	FarDU, f.m.f.d.prof.
QAHHOROVA M. (O'zbekiston)	Xalqaro islom akademiyasi, f.f.d.prof.	ONARQULOVA K. (O'zbekiston)	FarDU, f.m.f.d.prof.
MAMATOV M. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d (PhD).prof.	SHUHRATOV SH. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.b.f.d dots.
AHRORQULOVA A. (O'zbekiston)	FarDU, yu.f.b.f.d(PhD)	ASQAROV I. (O'zbekiston)	AnDU, k.f.d.prof.
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.dots.	IBRAGIMOV A.(O'zbekiston)	FarDU, k.f.d.prof.
G'ANIYEV B. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.dots.	MAMATQULOVA S. (O'zbekiston)	FarDU, k. f.f.b.f.d (PhD)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.prof.	ABDUG'ANIYEV O. (O'zbekiston)	FarDU, g.f.d.(DSc)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.prof.	XOMIDOV G'. (O'zbekiston)	FarDU, b.f.d.prof.
ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.prof.	AXMADALIYEV Yu. (O'zbekiston)	FarDU, g.f.d.prof.
SHUKUROV R. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.n.dots.	YULDASHEV G'. (O'zbekiston)	FarDU, q.x.f.d.prof.
ZOKIROV M. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.n.prof.	DADAYEV S. (O'zbekiston)	TDPU, b,f,d.prof.
XOLIQOV S. (O'zbekiston)	10089-xarbiy kism xabiy xizmatchisi, yu.f.f.d. (PhD)	XOLBOYEV F. (O'zbekiston)	O'zMU,b,f,d.prof.
YULDASHOV A. (O'zbekiston)	TDYUU dotsenti, yu.f.f.d. (PhD)	ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)	FarDU, b.f.d.prof.
		SHERALIYEV B. (O'zbekiston)	FarDU, b.f.d.(PhD).
		SHERMATOV M. (O'zbekiston)	FarDU, b.f.n. dots.

Texnik muharrirlar: Sheraliyeva J.
Mirkarimova Sh.
Musahhihlar: Raximov J.
Mahmudov F.

Tahririyat manzili:
150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti: Journal.fdu.uz

B.Sh.Shermuhhammadov, X.N.Qosimova Kitobxonlik – buyuk kelajak kafolati	8
T.A.Egamberdiyeva Turkiy xalqlar milliy madaniyatlari shakllanishining ijtimoiy va etnopedagogik asoslari	13
N.T.To‘xtaboyev Balandlikka sakrovchi sportchilar tayyorlaydigan murabbiylar o‘rtasida anketa so‘rovnomasini tahlili	18
I.B.Siddiqov Tarixiy-badiiy asarlar bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishning muhim omili sifatida	25
N.R.Gafurova, T.A.Egamberdiyeva Ta‘lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tolerantlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning maqsadli pedagogik tizimi.....	28
Sh.A.Mamajonov Oliy ta‘lim muassasalarida ekologik tarbiyani amalga oshirish mexanizmlarini rivojlantirish	32
M.M.Kuzibayeva Vrach-shifokorning pedagogik faoliyatiga qo‘yiladigan vazifalar	37
K.R.Abdullayeva Xalq pedagogikasi vositasida o‘quvchilar ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	39
Sh.K.Xujamberdiyeva Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishning zamonaviy texnologiyalari.....	43
U.Q.Maqsudov, R.A.Abdullayev Talabalarning ma‘naviy-axloqiy kompetentligini jadid pedagogikasi vositasida rivojlantirishning imkoniyatlari.....	48
R.Z.Xayrov Bo‘lajak tasviriy san‘at o‘qituvchilarini kasbiy-metodik tayyorgarligida pedagogik tashxis va baholash mezonlari	54
G.U.Radjabova Ta‘lim tashkilotining marketing strategiyasini shakllanishi	61
Г.К.Якубова Сравнительная динамическая двигательная потенциала детей с нормативными требованиями первой и второй возрастной групп тестов здоровья "Здоровье"	67
M.M.Xamroliev Fanlararo hamkorlik asosida o‘quvchilar bilimini rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	73
U.V.Mamadjanov Maktabda musiqa fanini o‘qitishning metodologik asoslari	76
S.X.Kaxharov Yoshlarda harbiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari	80
X.X.Tojiyev Texnologik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda innovatsion ta‘lim texnologiyalarini qo‘llash.....	85
D.S.Sobirov Ta‘limdagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va uning pedagogik jihatlari	92
D.Z.Isaboyeva Boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilarida zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirishning pedagogik psixologik asoslari (Xalqaro baholash dasturi)	96
F.Q.Yusupjanova O‘qituvchining pedagogik qobiliyatlari va uning komponentlari	99
X.A.Ustadjalilova Pedagogik tadqiqotlar metodlari va statistik gipotezalarning nazariy jihatlari.....	102

M.I.Nurmatova	
Talabalarda oila iqtisodiga oid kompetensiyalarni takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilinishi.....	107
D.B.Mahametova	
Use of information technologies in education	112
M.Norinov	
Bo'lajak texnik mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini multimedia vositalari asosida bosqichma-bosqich rivojlantirish texnologiyasi	115
G.T.Hojikarimova	
Integrativ yondashuv asosida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini maxsus kompetensiyalarini shakllantirish pedagogik muammo sifatida.....	119
X.M.Jo'rayev	
Kimyo o'qituvchilarining o'zini-o'zi rivojlantirish omillari.....	123
N.B.Odilxo'jazoda	
Kimyo o'qituvchisi kasbiy kompetentligini aniqlash metodikasini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslari	128
B.T.Tojibayev, S.S.Isokov	
Globalashuv kontekstida – ta'lim.....	132
D.Q.Oxunova	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyalari.....	136
N.E.Yuldasheva	
Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari.....	140
B.X.Baydjanov, Y.E.Mamatova	
Boshlang'ich ta'limda mediamadaniyat va texnoetikani o'qitish texnologiyasini takomillashtirish	144

FALSAFA

Б.С.Ганиев	
Социально-политические факторы повышения предпринимательской культуры в Узбекистане	150
M.D.Pardaeva	
Uchinchi renessans poydevorini yaratishda Navoiy Naqshbandiyona g'oyalarining ahamiyati.....	156
Z.P.Nadirova	
Intuitive cognition as a synergistic process	161
X.X.Raxmatova	
Naqshbandiylik – jahoniy ta'limot.....	165
Z.A.Akhmedova	
Donishning ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish haqidagi fikrlari tahlili.....	170
B.X.Karimov	
Ong muammosining ilmiy – falsafiy va psixologik talqini.....	175
L.M.Karimova	
Jamiyatni modernizatsiyalash sharoitida ayollarning ijtimoiy mobilligini takomillashtirish mexanizmlari.....	180
M.M.Gulamova	
Yangi O'zbekiston yoshlarini tarbiyalashda "Naqshbandiya Tariqati Nazariyotchisi" ta'limotining ahamiyati.....	185
O.T.Sharipova	
Xojagon tasavvufiy ta'limotida "Olam Kabir" haqida	189
Sh.B.Sattorova	
Mirzo Abdulqodir Bedilning inson va jamiyat haqidagi ta'limotida adolat va tenglik muammosini o'ziga xos tadqiqi.....	194
B.X.Hamdamiyov	
Boburning insonparvarlik – falsafiy qarashlari	200

A.A.Каримов Философия калама –рациональная основа средневекового исламского мировоззрения	203
D.E.Normatova Islom islohchiligi (modernizm): diniy-falsafiy va siyosiy jihatlar.....	210
B.E.Xusanov Estetik tarbiya mohiyatining falsafiy tahlili	215
N.M.Axmadiyev Yoshlarning axloqiy, ma'rifiy, madaniy tafakkurini yuksaltirishda keksa avlod tajribasidan foydalanishning ahamiyati	220
N.N.Teshayev Fuqarolik jamiyati rivojlanishining ijtimoiy-madaniy omillari	223
K.G'.Kamolova Ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida falsafaning o'rni.....	227
M.M.Qaxxorova, B.Farfiev Oila instituti mustahkamligining ijtimoiy-madaniy asoslari.....	232
K.U.Sharipova Jamiyatda gender tenglikning shakllanish jarayoni	240
S.A.Xayrullayev Jamiyat barqarorligida konsolidatsiya jarayonining konseptual asoslari.....	244
O'.X.Rajabov Maslahat – konsensusning sinergetik omili	248
Sh.T.Abbosova Milliy g'oya –insoniyatni barqaror taraqqiyot sari yetaklovchi kuch	251

СИЙОСАТ

B.N.Boboyorov, Sh.B.Boboyorov O'zbekiston tashqi siyosatidagi Markaziy Osiyo: yaqin qo'shnicilik va o'zaro manfaatli munosabatlar	254
A.A.Abdilxamedov Huquqbuzarlik profilaktikasi tushunchasining mazmun-mohiyati va xususiyati.....	261
B.Y.Paluaniyazov Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizligiga ta'sir etuvchi tahdidlarning namoyon bo'lish xususiyatlari	265
U.M.Kuranov Globallashuv sharoitida missionerlikka qarshi kurashning ma'naviy – ma'rifiy ahamiyati	270

ТАРИХ

Ma Jian, Vang Jianxin, M.Xasanov, Chen Aidong, Chjou Xinying, A.E.Berdimurodov, K.D.Arziyev O'zbekistonning Samarqand vodiysi janubiy tomonidagi 2014-yilgi arxeologik dala qidiruv ishlari hisoboti	275
M.X.Исамиддинов Оборонительные стены Афрасиаба и основные этапы его развития.....	309
X.Raxmatillayev Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmidagi etnik jarayonlar.....	314
F.X.Utayeva, P.Q.Sharipova, F.G'.Rahmatova Mustaqillik yillarida Buxoro to'qimachilik sanoatida modernizatsiyalashuv jarayonlari	318
N.S.Abdullayeva Rossiya muzeylarida saqlanayotgan O'zbekiston madaniy merosi namunalari.....	324
S.B.Xakimova “Xulosat ul-ahvol” asari xususida	329
Ш.Т.Темиров Мухаммад Сиддик Хашмат, сын Эмира Музаффар (1864-1932) – жизнь и научное наследие	332

**AFG‘ONISTON MATBUOTINING BUXORO AMIRLIGI HUDUDIGA TARQALISHI TARIXIGA
DOIR**

**ОБ ИСТОРИИ РАСПРОСТРАНЕНИЯ АФГАНСКОЙ ПРЕССЫ НА ТЕРРИТОРИИ
БУХАРСКОГО ЭМИРАТА**

**ABOUT THE HISTORY OF THE DISTRIBUTION OF THE AFGHAN PRESS IN THE
TERRITORY OF THE BUKHARA EMIRATE**

Shodiyeva Shahlo Soliyevna¹

¹Buxoro davlat universiteti, t.f.f.d. (PhD), dotsent

Annotatsiya

Ushbu maqolada Afg‘onistonda matbuot organlarining vujudga kelishi, bosmaxonalar, nashriyot ishlarining yo‘lga qo‘yilishi, dastlabki afg‘on matbuoti “Shams an-Naxor Kobuli” va uning qisqacha tavsifi, Afg‘oniston amiri SHeralixonni ulug‘lovchi jihatlari, Afg‘onistondagi ma‘rifatparvarlik harakatining Buxoro amirligiga ta‘siri, ikkinchi ingliz-afg‘on urushi davrida ushbu matbuot organining tugatilishi, “Siroj al-Axbor Afg‘oniya” matbuot organining vujudga kelishi, gazetaning Buxoro amirligi, Turkiston o‘lkasiga kirib kelish jarayonlari, Buxoro mahalliy matbuotida Afg‘onistondagi nashriyotchilik va matbuot ishlari borasidagi ayrim ma‘lumotlar, “Sirod al-Axbor Afg‘oniya” gazetasining arxitektonikasi, mustaqillik, musulmonlarning birdamligini targ‘ib etishi, Turkiston general-gubernatorligi va Buxoro amirligida ta‘qiqlanishi, hozirgi kunda ushbu gazetaning saqlanayotgan joyi, 1919-yildan boshlab “Omoni Afg‘on” nomi bilan chop etilishi bilan bog‘liq masalalar o‘sha davr matbuot organlari, arxiv manbalari asosida atroflicha tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье анализируются некоторые архивные данные и органов печати того времени о возникновение органов печати, возведение домов печати, издательство, литографии, возникновение о первой афганской печати «Шамс ан-Нахар Кобули» («Полуденная солнца Кабула») и краткое его содержание, о прославление эмира Афганистана Шералихана, воздействия движения просвещения Бухарскому эмирату, закрытые этой органы печати во время второй англо-афганской войны, возникновение органа печати «Сирож ал-Ахбор Афгания», о процессе распространения газеты в Бухарском эмирате и Туркестанском крае о некоторых сведениях работы печати Афганистана и в Бухарской местной печати, архитектоника газеты «Сирож ал-Ахбор Афгания» пропандирование независимости и единство мусульман о запрещение в Туркестанском генерал-губернаторстве и Бухарском эмирате, место хранения данной газеты сегодняшнего дня, задачи с опубликованием 1919 года под названием «Омони Афган».

Abstract

In the article the formation of the mass media in Afghanistan, establishment of printing facilities, the first Afghan media outlet “Shams an-nakhar” and its brief description, the aspects praising the emir of Afghanistan Sheralikhan, the impact of the enlightenment movement of Afghanistan to Bukhara, the insolvency of the this media outlet during the Anglo-Afghan war, the launch of “Siraj al-Akhbar Afghanistan” newspaper, the processes of infiltration of this newspaper to emirate of Bukhara and the Turkistan region, some info on the editing and printing issues in Afghanistan appearing in the local media of Bukhara, architectonics of the newspaper “Siraj al-Akhbar Afghanistan”, its propagation of independence, the solidarity of Muslims, its propagation of independence, its prohibition in the governorship-general of Turkestan and the emirate of Bukhara, the contemporary location where the newspaper is preserved, the issues related with printing under the name “Amani Afghan” are revealed thoroughly based on the mass media outlets

Kalit so‘zlar: Matbuot, ma‘rifatparvarlik, toshbosma, obuna, nastalix, lug‘at, arxitektonika, sahifa, rukn, “Ishtihor” (Mashhurlik)

Key words: Media, enlightenment, lithography, subscription, nastaliq, dictionary, architectonics, page, column, “Ishtihar” (Fame)

Ключевые слова: Печать, просветительство, литография, подписка, словарь, архитектоника, страница, «Иштихор» (Знаменитность)

KIRISH

XIX asrdan boshlab mustamlakachi davlatlarning O‘rta Osiyo va unga tutash mintaqalarni istilo qilish borasida o‘zaro ziddiyatlari avj oldi. Ayniqsa, Rossiya va Buyuk Britaniya imperiyalari O‘rta Osiyo hududlarini istilo qilish borasida bir-birlariga siyosiy va harbiy jihatdan raqiblik qila boshladilar. Sharq mamlakatlarida ham o‘z milliy mustaqilligini saqlab qolish, mamlakatlarini taraqqiy ettirish borasida ayrim amaliy harakatlar amalga oshirila boshlandi. Iqtisodiy va madaniy yuksalish borasida ilg‘or fikrli ziyolilarning qarashlari ham aynan shu davrda vujudga kelgan bo‘lib, oddiy aholi orasida bu g‘oyalarni targ‘ibot qilish va ilm-fan, texnika taraqqiyoti yutuqlarini hayotga

tadbiq etishorqali milliy mustaqillikni saqlab qolish mumkinligi, ilm-fan targ'iboti zarurligini uqtirish vositasi sifatida matbuot ishlarini jonlantirishga e'tibor qaratilgan edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tanlangan mavzuni o'rganishda asosan O'zbekiston Respublikasi Markaziy arxivida mavjud bo'lgan tarixiy hujjatlar birlamchi manba sifatida tahlilga tortilgan bo'lib, shuningdek, bir qator tarixiy adabiyotlar va keyingi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlar doirasidagi ma'lumotlar ham atroflicha tahlil etilgan. Shu bilan bir qatorda ushbu maqolani yoritishda davriy matbuot materiallaridan, xususan, Turon, "Shams an-Naxori Kobuli", "Turkiston to'plami", "Siroj al-Axbor Afg'oniya", "Anis", "Tutuli Afg'on", "Ittihodi Mashriqi" va boshqa matbuot organlarining maxsus sonlarida keltirilgan ma'lumotlar ilmiy tahlilga tortilgan. Bunday ma'lumotlarni yoritishda bizga Masson V.M., Romodin V.A, Ochildiyev D.Ya., Orziyev M.Z., Xalidov B.Z., Ikromova M.Sh., Sharifov R.Ya., Xalidov B.Z kabi olimlarning mavzuga oid tadqiqotlari ham tahlil qilishga harakat qilindi. Mavzuni yoritishda diskurs tahlil, davriy-xronologik izchillik, komparativ yondashuv kabi metodlardan foydalanilgan.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Angliyaga yarim qaram bo'lgan Afg'oniston davlatida bu g'oyalar targ'iboti Buxoro amirligidan ko'ra birmuncha ilgariroq boshlanganligini tarixiy adabiyotlardagi ma'lumotlar tasdiqlaydi. Afg'onistonda SHERALIXON (1862-1879 yy) hukmronligi davrida ilk bora bosmaxona, matbuot va nashriyotchilik ishlari yo'lga qo'yilgan. Litografiya uslubida kitoblar chop etila boshlangan. Afg'onistonda 1870-yildan boshlab, zamonaviy bosmaxona tashkil etilgan va endigina yo'lga qo'yilgan pochta xizmati uchun va pochta markalari bosma holatda chop etila boshlangan. Tarixiy adabiyotlardagi ma'lumotlarda 1878-yilda ikkinchi Anglo-Afg'on urushi (1878-1882 yy) boshlangunga qadar Afg'onistonda 105 turdagi pochta markalarining chop etilganligi keltirib o'tilgan. Shuningdek, 1873-1879-yillarda Afg'oniston tarixida ilk bora "Shams an-Naxori Kobuliy" ("Kobulning tush paytidagi quyoshi") gazetasi va 1878-yil ingliz-afg'on urushi boshlanishidan oldinroq birinchi milliy kalendar ham chop etilganligi Afg'onistonda bosmaxona va matbuot va nashriyot ishlari Buxoro amirligidan oldinroq vujudga kelganligini ko'rsatadi[4, 244].

Sheralixon davrida Kobulda uchta Shams an-Naxor, Murtadavi va Mustafavi nomli bosmaxonalar faoliyat yuritgan bo'lib, "Shams an-naxori Kobuliy" gazetasi dastlabki sonlari Murtadavi bosmaxonasida, yettinchi sonidan boshlab Shams an-Nahor bosmaxonasida chop etilgan. Gazetaning birinchi sahifasida yirik medalyon ichida "Shams an-Naxori Kobuli" so'zlari yozilgan bo'lib, medalyonning ikki tomonida sherlar tasviri hukmdor SHERALIXONNI anglatgan. Shuningdek, Sher va Ali musulmon an'analari Ali Ollohning sheri ekanligi bilan bog'liq afsonalarga ham ishora bo'lgan. Gazetada Afg'oniston, qo'shni musulmon mamlakatlari Yevropa mamlakatlari, mustamlakachilik urushlari bilan bog'liq ma'lumotlar chop etilgan. Xorijiy xabarlarining aksariyati Hindistonda chop etiladigan hind-ingliz matbuoti "Tilism-i xayrat", "Sind News" va "Mufarrax al-kulub" kabilardan ko'chirib bosilganligini ham ko'rish mumkin[15]. Albatta yaqin qo'shni davlat bo'lgan va Janubiy Turkiston (hozirgi Shimoliy Afg'oniston) uchun raqobat qilinayotgan Buxoro amirligidagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvol ham keng yoritib borilgan. Ushbu matbuot organi qo'shni Buxoro amirligi hududiga ham tarqalgan, ammo, Buxoroda ushbu matbuot organining obunachilari va ularning soni bilan bog'liq aniq ma'lumotlarga hozirda ega emasmiz.

"Shams an-Naxori Kobuli" gazetasining qo'limizda bo'lgan sanoqli sonlaridan xulosa qilinadigan bo'lsak, gazetaga olti oylik 35 va bir yillik obuna 65 afg'on rupiyasini tashkil etgan. 1290-yil yettinchi zulhijja dushanba kungi (1873-yil 6-dekabr) 9-sonidagi "Ishtihor" (Mashhurlik) nomli maqolada; Amir SHERALIXON va uning faoliyati, Afg'on va Turkiston (Janubiy Turkiston yoki Balx viloyati) aholisi SHERALIXON soyayi davlatida tinch va omonda yashayotganliklari, uning sharofati bilan eng to'g'ri xabarlarini yetkazila boshlanganligi, SHERALIXON topshirig'iga asosan Mirzo Abdul Ali "Shams an-Naxor"ni Kobulda chop eta boshlaganligi, gazeta Afg'oniston, Turkiston, Badaxshon, Buxoro, Hirot, rus va Qandahor xabarlarini yoritib borishi haqida to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, ushbu sonda til o'rganish targ'ib qilinish, ingliz-fors-urdu-arab tillarini o'rganishga qaratilgan lug'at gazetasining asosiy qism ma'lumotlarini egallagan. Nafaqat ushbu son, bizning qo'limizda mavjud sonlarning barchasi 16 sahifadan iborat ekanligini ko'rish mumkin[3].

"Shams an-Naxor Kobuli" gazetasi ikkinchi Ingliz-Afg'on urushi davrida Kobul inglizlar tomonidan ishg'ol qilingach, gazeta chop etilib turilgan toshbosmaxona Bolo-Hisor qo'rg'oni

TARIX

(Kobulda hukmdorlar yashaydigan qal'a) bilan birgalikda buzib tashlanadi[12,20]. Afg'onistonda bosmaxona, matbuot va nashriyot ishlari ma'lum bir muddat to'xtab qoldi. Bunga ikkinchi ingliz-afg'on urushida Afg'oniston Angliyaga yarim qaramlikdan qutila olmaganligi hamda mamlakatdagi ulamolarning, eskicha qarash tarafdorlarining salmog'i yuqori ekanligi katta ta'sir ko'rsatadi.

Buxoro amirligida yashayotgan ilg'or fikrli ziyolilarga Afg'oniston matbuoti katta ta'sir ko'rsatgan deyishga barcha asoslarimiz yetarli. Buxoroda ham bosmaxona, matbuot va nashriyot ishlari yo'lga qo'yishga Afg'onistondan bir oz kechroq bo'lsada urinishlar sodir bo'lib, XIX asrning 80-yillarida Buxoroda Mulla Muhsin, Mulla Ahmal, Hoji Azimboy kabi shaxslarning bosmaxona tashkil etishi va bar qator adabiyotlar, musulmoncha taqvim, gazeta chop etishga urinishlari sodir bo'lgan. Ularni ayrimlarini Hindiston orqali haj ziyoratidan qaytishda olib kelinganligi, ishchilarning ham hind-musulmonlar ekanligi Hindiston, birinchi galda Afg'onistondagi o'zgarishlar ta'siri deb xulosa qilish mumkin. Ammo, Buxoroning mutaassib ulamolar va Rossiya imperiyasi amaldorlarining talabi (Rossiya uchun buxoroliklarning ma'naviy, ilm-fan, tezkor axborotga ega bo'lishi xavfli deb hisoblangan) bilan ular o'z faoliyatini to'xtatadi[6,11].

"Turkiston to'plami"dagi ma'lumotlarda ham bizni fikr-mulohazalarimizni tasdiqlovchi ma'lumotlarni uchratish mumkin. To'plamdagi maqolalarning birida, o'lkada bosma adabiyotning asosan Konstantinopol (Istanbul) va Hindistonda chop etilib tarqalishi mahalliy bozorni to'ldirgan bo'lsa, qisqa vaqt mahalliy bosmaxonalar faollashgani, ammo, 1883-yildan boshlab kitoblarni nashr etish uchun Peterburgdagi bosh senzura komitetidan ruxsat olinishi xususidagi qonun kuchga kirishi bilan mahalliy bozorni yana xorijiy bosma adabiyotlar to'ldira boshlaganligi nafaqat ma'naviy va mafkuraviy jihatdan balki, iqtisodiy jihatdan ham Rossiya manfaatlariga zarba bo'layotganligi xususidagi fikrlar keltirib o'tiladi[9,139-140].

Ikkinchi ingliz-afg'on urushi davrida Afg'onistonda matbuot va bosmaxona ishlari to'xtab qoladi. Angliyaga tashqi siyosatda qaramlik va tashqi dunyodan izolatsiya ma'rifatparvarlik harakatining ma'lum bir muddat pasayishiga olib keldi. Bu borada XX asrning dastlabki yillari yangi qadamlar tashlangan bo'lib, 1905-yili "Shohiy" madrasasi o'qituvchisi Mullo Ablurrauf Qandahoriy, Habibiya maktabi o'qituvchisi Muhammad Sarvar Qandahoriylar boshchiligidagi "Siroj al-Axbor Afg'oniya" ("Afg'on xabarlar yoritgichi") ma'rifatparvarlik jamiyatini tuzadilar. Ushbu jamiyat Afg'onistonda matbuot ishlari yo'lga qo'yishga harakat qiladi. Gazeta muharrirlari tarkibiga ega afg'onlar va hind-musulmonlar Najaf Alixon, Haydar Alixonlar kiradi. 1906-yil 11-yanvarda chop etilgan "Siroj al-Axbor Afg'oniya" gazetasining ilk soni chop etilishi bilan inglizlar uning yopilishini talab qilishi natijasida matbuotchilik ishi yana bir necha yilga ortga suriladi[11,148].

"Siroj al-Axbor" gazetasini chop etishning ikkinchi bosqichi 1911-yil 9-oktabrdan boshlanadi. Uning chop etilishiga afg'on ma'rifatparvari Mahmudbek Tarzining faoliyati diqqatga sazovor. 1911-1919-yillar oralig'ida "Siroj al-Axbor Afg'oniya" gazetasi muntazam chop etilib turildi. Uning 1-6 sonlari "Sirod al-Axbor" va yettinchi sonidan boshlab "Siroj al-Axbor Afg'oniya" deb nomlangan. o'lchami 9x12 dyumli qog'ozda, 12 sahifadan iborat. Nastalix xatida yozilgan. Gazetaning dastlabki 14 ta soni 12 sahifadan iborat bo'lgan bo'lib, keyingi barcha sonlar 16 sahifadan iborat holda chop etilgan. Gazetaning deyarli barcha sonlari (1911-yilgi ayrim sonlaridan tashqari) O'zMU fundamental kutubxonasida saqlanadi[8,43]. Gazetaning arxitektonikasi birinchi sahifada muharrir nomi, sanasi, chop etilgan joyi, obuna bo'lish mumkin bo'lgan joylar, reklama va e'lonlar berish tartibi kabilarni ko'rish mumkin. Gazetaning birinchi sahifasi o'rta qismida odatda fotolavha va uning sharhi berilgan. Ilustratsiya ushbu gazetaning muhim jihatlaridan biri bo'lgan. Ammo, o'sha davr mafkurasi va vaziyatdan kelib chiqqan holda Afg'oniston amiri hokimiyati va mavjud tuzum ulug'langanligini ko'rishimiz mumkin[1,52]. Gazetaning boshqa musulmon mamlakatlari va o'lkalariga ta'luqli maqola va xabarlarida mustaqillik, musulmonlarni o'zaro birlashuvini targ'ib qilishi Buxoro amirligi hududida ham tezda tarqalib, o'zining muntazam mushtariylariga ega bo'lishini ta'minlagan. D.Y. Ochildiyev ma'lumotlarida "Siroj al-Axbor Afg'oniya"ning Buxoro amirligidagi doimiy obunachilari soni 120 ta ekanligi keltirib o'tilgan[7, 27].

"Siroj al-Axbor Afg'oniya" gazetasi birinchi yil toshbosmada chop etilgan. Keyin bosmaxonaga yangi uskunalar olib kelinib bosma usulida chop etilgan. Bu xususda Buxoro amirligi hududida ilk bora chop etilgan "Buxoroyi sharif", "Turon" gazetalari ham e'tibor qaratganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, "Turon"ning 38-son "Matbaa" ruknida: "Afg'onistonda hozirga qadar matbaalari bor bo'lsada harofot matbaalari yo'q xikmanda edi. Hozir bir necha dona harofot

matbaasi ochilubdir harflari shakllari Istanbul harofatidan ochiqdur[5]”-degan ma’lumotlarni o’qish mumkin. Bu kabi Afg’oniston matbuoti va ijtimoiy hayotiga oid ma’lumotlar, qisqa xabarlar Buxoro matbuotida anchagina salmoqqa ega.

“Siroj al-Axbor Afg’oniya”ning Rossiya imperiyasi hududiga kirib kelishi mustamlaka ma’murlari noroziligiga sabab bo’lib, uni olib kirish ta’qiqlab qo’yiladi. Ammo, ushbu matbuot organining Buxoro kirib kelishi davom etganligini arxiv manbalaridagi ma’lumotlar tasdiqlaydi. Buxorodagi rus siyosiy agentligining 1913-yil 5-avgustdagi 201-sonli Buxoro qushbegisi Nasrulloqa yuborilgan maxfiy xatida “Siroj al-Axbor” gazetasining ta’qiqlanishiga qaramay kirib kelayotgani va uning Buxoroga tarqalmasligiga kirib kelayotganligi sababli, uning har bir yangi sonidan bir nusxa Afg’oniston amirining Buxorodagi savdo agenti orqali agentlikka yetkazilish so’raladi[13]. Shu orqali siyosiy agentlik mahalliy aholi kayfiyatidan va Afg’onistondagi vaziftdan xabardor bo’lib turishga harakat qilgan deb xulosa qilish mumkin.

“Siroj al-Axbor”ning kirib kelishini ta’qiqlanishi ayrim ilmiy jamiyatlarda, jumladan sharq tillarini o’rganish jamiyatida ma’lum bir qiyinchiliklarni tug’diradi. Shu sababli, ushbu jamiyat rasmiy idoralarga “Siroj al-Axbor” gazetasini yangi sonlarini yetkazib berishni iltimos qilganliklari arxiv hujjatlarida saqlanib qolingan. 1915-yil 24-noyabrda “Siroj al-Axbor”ning 30 dona so’nggi sonlaridan yuborishni, 1916-yil 4-fevralda esa 1915-yil 9 dekarbdagi 9028-sonli iltimosnomaga asosan 10 dona “Siroj al-Axbor”ning eski sonlarini olganliklari uchun rasmiy ma’murlarga minnatdorchilik bildirilgan[14]. “Siroj al-Axbor Afg’oniya” gazetasi 1919-yilda Afg’onistonning uchinchi ingliz-afg’on urushida g’alaba qilishi va milliy mustaqillikni qo’lga kiritganidan so’ng “Omoni Afg’on” nomi bilan chop etila boshlaydi. Shuningdek, Bu davrda Afg’onistonda matbuotchilik harakati avj olib, “Anis”, “Tutuli Afg’on”, “Ittihodi Mashriqi” va boshqa matbuot organlari ham chop etildiki, ularning o’zi alohida mavzu bo’lib hisobanadi[10,29]. Faqat aytish mumkinki, “Siroj al-Axbor Afg’oniya” gazetasining davomchisi bo’lgan “Omoni Afg’on” matbuot organi Buxoro inqilobchilarini qo’llab-quvvatlagan. Buxoro amirligi, Turkiston o’lkasidagi inqilobiy harakatlarni “Omoni Afg’on” gazetasi o’zining 3-5 sonlaridayoq qo’llab-quvvatlab, inqilobiy matbuot organliri va ulardagi g’oyaviy arxitektonikani ma’qullaganini “SHo’layi inqilob” gazetasida keltirib o’tilganligini ko’rishimiz mumkin[2].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Afg’oniston matbuoti Buxoro amirligi hududida eng avvalo ilg’or fikrli ziyolilar orasida tarqaldi. Afg’on matbuoti sahifalarida garchi Afg’oniston va uning hukumati ulug’langan bo’lsada, musulmonlarning birlashuvi, mustamlakachilikka birgalikda kurashga chorlov, diniy birdamlik g’oyalari aholi orasida, ayniqsa ziyoli qatlamlar orasida katta ta’sir kuchiga ega bo’ldi deyishga barcha asoslar yetarli. Bu holat inqilob davrida ayrim bekliliklarda va hatto Buxoro amirida inqilobiy harakatlar va sobiq SSSR tajovuziga qarshi Afg’oniston yordamiga umid bog’lash holatlarini ham vujudga keltirdi deb aytish mumkin.

ADABIYOTLARLAR RO’YXATI

1. Икромова М.Ш. Газета “Сирадж аль-Ахбор-е Афганийа” как источник по политической истории Афганистана начала XX века // *Ўзбекистонда ижтимоий фанлар (Общественные науки в Узбекистане)* 7-сон, 1991.– 52-5 4 с. (Ikramova M.Sh. Newspaper "Siradj al-Akhbor-e Afghanistan" as a source of political polemics in Afghanistan Afghanistan XX XX // *Social Science in Uzbekistan (Issue 7, 1991)* - 52-5 4 p.)
2. Исломий матбуотлар // *Шўлаи инқилоб. 25-сон. 1919 йил, 22 декабрь.*(Islamic press // *The Shadow Revolution. Issue 25 December 22, 1919*)
3. Иштихор (Машхурлик) // *Шамс ан-Нахори Кобули. 9-сон, 1290 (1873) йил, 7 зулҳижжа. Excerpt (Celebrity) // Shams an-Nahori Kabul. 9 No. 1290 (1873), 7 zulhijja.*)
4. Массон В.М., Ромодин В.А. История Афганистана: Афганистан в новое время / Ответственные редакторы: Р.Т. Ахрамович, О.В. Ганковский, В.А. Лившиц. Том II. – М.: Наука, 1965. – 550 с. (Masson V.M., Romodin V.A. History of Afghanistan: Afghanistan in Modern Times / Responsible editors: R.T. Akhramovich, O.V. Gankovsky, V.A. Livshits. Volume II - M.: Nauka, 1965. - 550 s.)
5. Матбаа // *Турон 38-сон, 1912 йил, 4 декабрь.* (Printing // *Turon No. 38, December 4, 1912,*
6. Орзиев М.З. Бухоро амрлигида босмаҳоначилик фаолияти тарихидан. –Бухоро.: 2016. – 68 б. (Orziev M.Z. From the history of printing activities in the Bukhara Emirate. - Bukhara: 2016. - 68 p.)
7. Очилдиев Д.Я. Младо афганское движение. - Т.: Фан, 1985. – 127 с.(Ochildiev D.Ya. Young Afghan movement. - T.: Fan, 1985. - 127 p.)
8. Очилдиев Д.Я. “Сирож ал-Ахбор” как источник по изучению общественно-политической мысли Афганистана начало XX века. // *Ўзбекистонда ижтимоий фанлар (Общественные науки в Узбекистане).* 3-сон 1973

TARIX

- йил, - С. 43-44. (Achiliev D.Ya. "Siroj al-Akhbor" as a source to investigate political and social attitudes in Afghanistan. Issue 3, 1973, - p. 43-44.)
9. Погибающее производство /Туркестанский сборник. Т. 437. – С. 139 -140. (Perishing production / Turkestan collection. Т. 437. - S. 139-140.)
10. Халидов Б.З. К истории изучения афганского языка. Ўзбекистонда ижтимоий фанлар (Общественные науки в Узбекистане) 12-сон, 1962 йил, - С. 28-34. (Khalidov B.Z. On the history of the study of the Afghan language. Беки Uzbekistan, Izhtimoi Fanlar (Social Sciences in Uzbekistan) 12-sleep, 1962 yil, - S. 28-34.)
11. Шарифов Р.Я. История Современного образование в Афганистане (1919-1978 гг.). Иссертация на соскание ученой степени доктора исторических наук. – Душанбе 2018. – 338 с.(Sharifov R.Ya. History of Modern Education in Afghanistan (1919-1978). dissertation for the degree of Doctor of Historical Sciences. - Dushanbe 2018 .-- 338 p.)
12. Яковлева А.Е. Просветительские идеи Махмуда Тарзи по “Сайохат-нома”. Выпускная квалификационная работа. – С.-Петербургский государственный университет. 2017. – 42 с. (Yakovleva A.E. Educational ideas of Mahmoud Tarzi on Sayohat-noma. Graduation work. - St. Petersburg State University. 2017 .-- 42 p.)
13. Ўзбекистон Республикаси Миллий Архиви (ЎзРМА) И-126. фонд, 2-рўйхат, 4-хужжат, 43-варақ.(Central State Archives of the Republic of Uzbekistan (RUz) I-126. stock, list 2, document 4, page 43)
14. ЎзРМА И-3. фонд, 1-рўйхат,773-хужжат, 1-варақ, 3-варақ. (Central State Archives of the Republic of Uzbekistan (RUz) I-3 in the Republic of Uzbekistan. stock, list 1, document 773, sheet 1, page 3.)
15. https://dl.wdl.org/13030_1_7.png